




“KELISHILDI”

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ
Kasaba uyushma qo‘mitasi raisi


N. Ko‘chkinov
2024-yil



“TASDIQLAYMAN”

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ
Boshqaruv raisi v.b.

T. Zaripov
2024-yil



“DEHQONOBOD KALIY ZAVODI” AKSIYADORLIK JAMIYATINING
MANFAATLAR TO‘QNASHUVINI BOSHQARISH PROTSEDURASI

Ishlab chiqdi:
Komplayens xizmati boshlig‘i

O‘.Meyliyev

Kelishildi:
Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari
Boshqaruv raisining Iqtisod va moliya
bo‘yicha o‘rinbosari
Boshqaruv raisining transport va logistika
bo'yicha o‘rinbosari v.b

B. Normuratov

U. Isaev

J. Yusupov

Yuridik bo‘lim boshlig‘i

A. Umarov

Hujjat kodi

KQKMT-7

Tahrir raqami

1


Amal qilish muddati

16. 05. 2024 y

dan

16. 05. 2027 y gacha

Mazkur hujjat “Dehqonobod kaliy zavodi” AJning mulki hisoblanadi va oshkor qilib bo‘lmaydigan xarakterga ega. Hujjatning to‘lig‘icha yoki alohida qismlari nusxalarga ko‘paytirilishi, shuningdek, Komplayens xizmati rahbari ruxsatisiz tashkilot xodimi hisoblanmagan begona shaxslarga berilishi man etiladi. Kiritiladigan o‘zgartirishlar faqat hujjatning asli va ro‘yxatga olingan nusxalaridagina qayd qilinishi lozim.



MUNDARIJA

1. O'ZGARTISHLARNI QAYD QILISH VARAG'I.....	2
2. HUJJATNING MAQSADI	3
3. TA'RIFLAR VA QISQARTIRISHLAR	3
4. QO'LLASH SOHASI	5
5. JAVOBGARLIK	5
6. MANFAATLAR TO'QNASHUVINI BOSHQARISHNING ASOSIY PRINSIPLARI	5
7. MANFAATLAR TO'QNASHUVINI BOSHQARISH DOIRASIDA XODIMLARNING MAJBURIYATLARI	6
8. MANFAATLAR TO'QNASHUVI HAQIDAGI MA'LUMOTLARNI OSHKORLASHTIRISH	6
9. MANFAATLAR TO'QNASHUVINING MAVJUDLIGI/MAVJUD EMASLIGI HAQIDAGI MA'LUMOTLARNI ISHGA QABUL QILISHDA OSHKORLASHTIRISH	7
10. MANFAATLAR TO'QNASHUVI MAVJUDLIGI/MAVJUD EMASLIGI HAQIDAGI MA'LUMOTLARNI ROTATSIYA YOKI YANGI LAVOZIMGA TAYINLANISHDA OSHKORLASHTIRISH	8
11. MANFAATLAR TO'QNASHUVI MAVJUDLIGI/MAVJUD EMASLIGI HAQIDAGI MA'LUMOTLARNI HAR YILI DEKLARASIYALASH.....	9
12. MANFAATLAR TO'QNASHUVI MAVJUDLIGI HAQIDAGI MA'LUMOTLARNI MANFAATLAR TO'QNASHUVI HOLATLARINING YUZAGA KELISHI JARAYONIDA ANIQLASH	10
13. JAMIYATDA YO'LGA QO'YILGAN A'LOQA KANALLARI ORQALI MANFAATLAR TO'QNASHUVI MAVJUDLIGI HAQIDAGI MA'LUMOTLARDAN XABARDOR ETISH	10
14. MANFAATLAR TO'QNASHUVI HOLATLARINI KO'RIB CHIQISHGA MA'SUL SHAXSLAR.....	11
15. MANFAATLAR TO'QNASHUVI HOLATLARINI KO'RIB CHIQISH MUDDATLARI	11
16. MANFAATLAR TO'QNASHUVINI HAL ETISH BORASIDA QAROR.....	12
17. MANFAATLAR TO'QNASHUVI HOLATLARINI HAL ETISH BO'YICHA TADBIRLARNI AMALGA OSHIRISH	13
18. MANFAATLAR TO'QNASHUVI SIFATIDA XARAKTERLANADIGAN HOLATLARNING HISOBINI YURITILISHI VA HUJJATLARNI SAQLASH	14
19. O'ZGARISHLAR KIRITISH TARTIBI VA AMAL QILISH DAVRI	15
20. PROTSEDURA BO'YICHA YOZUVLAR RO'YXATI.....	16
1-Ilova Ishga qabul qilinayotganida manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi to'g'risidagi arizaning Namunaviy shakli	17
2-Ilova Rotatsiya/lavozimga tayinlanishda yoki yillik deklaratsiyani to'ldirish vaqtida manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi to'g'risidagi arizaning Namunaviy shakli	20
3-Ilova "Dehqonobod kaliy zavodi" AJning xodimlari har yili manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi/yo'qligi to'g'risida ma'lum qilishi shart bo'lgan lavozimlar ro'yxati.....	22
4-Ilova Manfaatlar to'qnashuvini baholash va hal etish shakli	23
5-Ilova "Dehqonobod kaliy zavodi" AJda manfaatlar to'qnashuvi bilan tavsiflangan holatlar reestri	25

2. HUJJATNING MAQSADI

Ushbu “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ ning (kelgusida “Jamiyat”) manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish protsedurasi (kelgusida “Protsedura”) manfaatlar to‘qnashuvini boshqarishning asosiy prinsiplari, hamda xodimlarning xizmat vazifalarini bajarishlari jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini ochish va hal etish tartibini belgilaydi.

Protseduraning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Xodimlarning xizmat vazifalarini bajarishlari jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini ochish, ko‘rib chiqish va hal etish bo‘yicha yagona talablar va protseduralar orqali manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini boshqarishning samarali tizimini yaratish;
- Xodimlar tomonidan shaxsiy manfaat ta’siri ostida qaror qabul qilinishining jamiyatga salbiy ta’siri tavakkalini minimallashtirish.

3. TA’RIFLAR VA QISQARTIRISHLAR

Ta’riflar:

Jamiyat	“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ
Hujjat	Identifikatsiya qilish imkoniyatini beruvchi rekvizitlarga ega, moddiy eltuvchida rasmiylashtirilgan ma’lumot.
Xujjatlashtirilgan axborot	Tashkilot tomonidan boshqarish va ishga yaroqli xolatda saqlash talab etiladigan ma’lumot.
Yozuvlar	Bu natijaga erishilganligini tasvirlaydigan yoki faoliyatni amalga oshirilganligini isbotini tasvirlaydigan hujjatlar.
Protsedura	Jarayoni yoki faoliyatni amalga oshirishni o‘rnatilgan usuli
Yaqin qarindoshlar	Xodimning qarindoshlari yoki o‘gay qarindoshlari, ya’ni ota-onalar, qon aka-uka va opa-singillar, o‘gay aka-uka va opa-singillar turmush o‘rtoqlar, bolalari, shu jumladan asrab olingan bolalar, bobolar, buvilar, nabiralar, shuningdek turmush o‘rtoqlarning qarindoshlari, ya’ni ularning ota-onalari, qon aka-ukalari va opa-singillari, o‘gay aka-ukalari va opa-singillari.
Davlat rasmiysi	<ul style="list-style-type: none"> - O‘zbekiston Respublikasining yoki chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi yoki sud hokimiyatida tayinlangan yoki saylanadigan lavozimni egallagan har qanday shaxs; - O‘zbekiston Respublikasining yoki chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi yoki sud hokimiyatida tayinlangan yoki saylanadigan lavozimni egallagan har qanday shaxs; - O‘zbekiston Respublikasi yoki chet davlat uchun, shu jumladan davlat organi, korxonalar yoki muassasa uchun davlat funksiyalarini bajaradigan har qanday shaxs; - har qanday rasmiy yoki xalqaro tashkilot vakili; - siyosiy arboblardan, siyosiy partiyalar mansabdor shaxslari, shu jumladan siyosiy lavozimlarga nomzodlar.
Davlat funksiyalari	Davlat tomonidan berilgan va davlat manfaatlari yo‘lida, masalan davlat xaridlari bilan bog‘liq amalga oshiriladigan har qanday faoliyat.
Davlat organlari, korxonalar va muassasalar	Davlat hokimiyati organlari (shu jumladan vazirliklar, davlat qo‘mitalari, xizmatlar, agentliklar, markazlar, inspeksiyalar, davlat Jamiyatlari, konsernlar), fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ularning tarkibiy bo‘linmalari, shuningdek bevosita yoki bilvosita davlat tomonidan boshqariladigan yuridik shaxslar.



Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi hujjatlari

KQKMT-7

Sahifa 4/26

Manfaatlar to'qnashuvini hal etish bo'yicha komissiya	Jamiyatda manfaatlar to'qnashuvini baholash va hal etish maqsadida tashkil etilgan komissiya
Axloq komissiyasi Komissiya	Xodimlar tomonidan amaldagi qonunchilik, jamiyatning ustavi, ishda o'zni tutish kodeksiga amal qilinishini nazorat qilish, shu jumladan jamiyat boshqaruvi a'zolariga nisbatan manfaatlar to'qnashuvi holatlarini ko'rib chiqish va qaror qabul qilish maqsadida jamiyatda tashkil qilingan komissiya.
Kontragent	Jamiyat shartnomaviy munosabatlarga kirishayotgan har qanday jismoniy (xodimlardan tashqari), yoki yuridik shaxs (jumladan uning filiali va/yoki vakilligi).
Maxfiy ma'lumotlar	Bu har qanday shakldagi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va mulkdor ichki hujjatlari bilan, qabul qilingan, qayta ishlangan, o'tkazilgan yoki ulardan foydalanish chegaralangan ma'lumotlar
Davlat siri	Davlat tomonidan muhofaza qilinadigan, maxsus ro'yxatlar bilan cheklangan O'zbekiston Respublikasining alohida ahamiyatga ega, o'ta maxfiy va harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va boshqa ma'lumotlari
Tijorat siri	Uchinchi shaxslarga noma'lumligi sababli ilmiy- texnik, texnologik, ishlab chiqarish, moliyaviy-iqtisodiy va boshqa sohalarda tijorat ahamiyatga ega bo'lgan, ma'lumot egasi tomonidan maxfiylikni ximoya kilinadigan va konuniy asosda erkin kirish imkoni yo'q ma'lumotlar
Manfaatlar to'qnashuvi	Shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.
Real manfaatlar to'qnashuvi	Xodimning shaxsiy manfaatdorligi bevosita yoki bilvosita jamiyat manfaatlariga zid kelishi holati
Potensial manfaatlar to'qnashuvi	Xodimning shaxsiy manfaatdorligi ma'lum shart-sharoitlar yuzaga kelganda bevosita yoki bilvosita jamiyat manfaatlariga zid kelishi va ushbu xodimning lavozim majburiyatlarini bajarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holat
Shaxsiy manfaatdorlik	Xodimning va/yoki uning yaqin qarindoshining, o'zi va/yoki qarindoshining pul mablag'larini, boshqa mulklarni, shu jumladan mulkiy huquqlarni, mulkiy xarakterdagi xizmatlarni bajarilgan ishlar natijalarini yoki qandaydir boshqa foydalarni (ustunlikdarni) olish imkoniyati bilan bog'liq manfaatdorligi.
Noqonuniy foyda	Biror qonuniy asos bo'lmagani holda va'da qilinayotgan, taklif qilinayotgan, yetkazib berilayotgan pul mablag'lari yoki boshqa mulk yoki mulkiy huquqlar, ustunliklar, imtiyozlar, xizmatlar, nomoddiy aktivlar, boshqa har qanday moddiy yoki nomoddiy naf.
Nepotizm (kumovstvo)	O'zining yaqin qarindoshlari yoki shu jumladan do'stlariga noqonuniy imtiyozlar berish maqsadida hokimiyatdan foydalanish va/yoki ta'sir ko'rsatish, ammo shu jumladan quyidagi holatlar bilan cheklanmasdan: yaqin qarindoshlari va/yoki do'stlariga asossiz mukofotlar yozish, yaqin qarindoshlari va do'stlarini jamiyat manfaatlariga zid ravishda ishga qabul qilish va lavozimga tayinlash



Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi hujjatlari

KQKMT-7

Sahifa 5/26

Favoritizm	Jamiyat xodimining bir shaxs va/yoki shaxslar guruhi manfaatlariga boshqa shaxs va/yoki shaxslar guruhi manfaatlariga taqqoslaganda, ustuvorlik berishi holati, ammo quyidagi holatlar bilan cheklanmasdan: jamiyatda kadrlarni tanlash va joylashtirish, martabasining ko'tarilishi, mukofot va qo'shimchalar yozilishi, ta'tillar berilishi yoki sanotoriy va chet elga xizmat safarlariga yo'llanmalar berilishi, murojaatlarni ko'rib chiqish shuningdek ish va navbatchilik grafiklari navbatini belgilash, va shu kabilar.
-------------------	--

Qisqartirishlar:

KQKBT	Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimi
KQKBT RV	Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimi rahbariyat vakili
KQKBTP	Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimi prosedurasi
KQKBTJ	Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimi jarayoni
ISO	Xalqaro standartirish tashkiloti

Ushbu protsedurada qo'llanilgan, lekin ta'riflari keltirilmagan terminlar jamiyatning boshqa ichki meyoriy hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida qanday ma'noda ishlatilgan bo'lsa xuddi shu ma'noda ishlatiladi.

4. QO'LLASH SOHASI

Egallab turgan lavozimidan qat'i nazar ushbu protseduraning talablariga va prinsiplariga rioya etish barcha xodimlar uchun majburiydir.

Har-bir xodim shu jumladan jamiyatni boshqaruvni a'zolari jamiyatga ishga qabul qilishda va ushbu protsedurada nazarda tutilgan boshqa holatlarda ushbu protsedura bilan tanishib, imzo chekishlari va uning qoidalariga rioya etishlari lozim.

5. JAVOGBARLIK

Egallab turgan lavozimi, mehnat staji, mavqei va boshqa faktorlardan qat'i nazar xodimlar ushbu protseduraning prinsiplari va talablariga rioya etishga shaxsan javobgardirlar.

O'zida manfaatlar to'qnashuvi paydo bo'lgan jamiyat xodimlari yuzaga kelgan vaziyatni hal etish jarayonida ma'sul shaxslarga yordam berishlari lozim.

Xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni yashirish va/yoki qastdan o'z vaqtida yoki to'liq ochmaslik jamiyat manfaatlariga zarar olib kelishidan qat'i nazar ushbu protseduraga, qabul qilingan axloq kodeksi meyorlariga mehnat intizomiga va jamiyatning ichki meyoriy hujjatlari talablariga rioya etmaslik sifatida qaraladi.

6. MANFAATLAR TO'QNASHUVINI BOSHQARISHNING ASOSIY PRINSIPLARI

Xodimlar tomonidan lavozim majburiyatlarini bajarishlarida manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi xodimlarning o'zlarini ish samaradorligi bilan birga butun jamiyat faoliyati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, jamiyatning huquq va qonuniy manfaatlariga, mulkiga va/yoki obro'siga zarar yetkazilishiga olib kelishi mumkin.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi №O'RQ-419 O'zbekiston Respublikasi Qonuni davlat organlari va ularning xodimlari uchun manfaatlar to'qnashuvi holatlarini ochish va hal etish majburiyatini belgilaydi, jamiyat davlat organi bo'lmagani holda ko'rsatilgan talablarning korrupsiyaning oldini olishda qanchalik muhimligini yana ham ko'proq angelaydi.

Jamiyatda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish borasidagi ishlar asosida quyidagi prinsiplar yotadi:

- Jamiyat xodimlarining qonuniy manfaatlari va erkinlik huquqlariga rioya etilishi;
- Jamiyat xodimlarining o'zlariga berkitilgan lavozim majburiyatlarini bajarishlarida shaxsiy manfaatdorligidan jamiyat manfaatlarining ustuvorligi;
- xodimlar tomonidan real yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarning oshkorlashtirilishi majburiyligi;

- manfaatlar to'qnashuvi holatlari haqidagi ma'lumotlarni oshkorlashtirish jarayoni va uni hal etish jarayonining maxfiyligi;
- har-bir manfaatlar to'qnashuvi oshkorlashtirilganda va uning hal etilishida jamiyat uchun reputatsion tavakkallar individul tartibda ko'rib chiqilishi va baholanishi;
- manfaatlar to'qnashuvi holatlarini ko'rib chiqish va bunday holatlarni hal etish bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida shaffoflik, vijdoniylik, kollegiallik va obyektivlik
- manfaatlar to'qnashuvini hal etishda jamiyat va xodimning manfaatlarida balansga rioya etishga harakat qilish
- jamiyat xodimi potensial yoki real manfaatlar to'qnashuvi haqida biror qaror qabul qilinishidan oldin tegishli tartibda xabar bergan va jamiyat manfaati foydasiga shaxsiy manfaatdorlikdan voz kechishga tayyor bo'lgan holatda unda manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi tufayli ishdan bo'shatilishiga yo'l qo'yilmasligi.

7. MANFAATLAR TO'QNASHUVINI BOSHQARISH DOIRASIDA XODIMLARNING MAJBURIYATLARI

Lavozim majburiyatlarini bajarishlari davomida xodimlarning shaxsiy manfaatdorligini jamiyat manfaatlaridan ustuvorligi holatlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida Xodimlarga quyidagi majburiyatlar yuklatiladi:

- ushbu Protseduraning talablariga rioya etish;
- real manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlardan (imkon qadar) o'zini olib qochish;
- yuzaga kelgan (real) yoki potensial manfaat to'qnashuvini o'z vaqtida va to'liq hajmda oshkorlashtirish;
- o'z lavozim majburiyatlari va vakolatlarini bajarishlari davomida shaxsiy manfaatdorlikni hisobga olmasdan jamiyat manfaatlarini inobatga olish;
- lavozim majburiyatlari va vakolatlarini nepotizm ("kumovstvo"), favoritizm, mahalliychilik, homiylik, klanlik asosida amalga oshirmaslik;
- yuzaga kelgan manfaatlar to'qnashuvini hal etishda hamkorlik qilish.

8. MANFAATLAR TO'QNASHUVI HAQIDAGI MA'LUMOTLARNI OSHKORLASHTIRISH

8.1 Jamiyatda manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni oshkorlashtirishning quyidagi tartibi o'rnatilgan:

- manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi/mavjud emasligi haqidagi ma'lumotlarni ishga qabul qilishda oshkorlashtirish;
- manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi/mavjud emasligi haqidagi ma'lumotlarni rotatsiya yoki yangi lavozimga tayinlashda oshkorlashtirish;
- manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi/mavjud emasligi haqidagi ma'lumotlarni har yili deklarasiyalash;
- manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi haqidagi ma'lumotlarni yuzaga kelishi bilan oshkorlashtirish

8.2 Majburiy oshkorlashtirilishi lozim bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi holatlari o'rnaklari:

- Xodimning bevosita qo'l ostida yoki rahbariyatda yaqin qarindoshlari mavjud;
- Jamiyat xodimi yaqin qarindoshlariga nisbatan kadrlar bilan bog'liq qarorlar (shu jumladan ish haqlari, mukofotlar, ustamalar va boshqa turdagi rag'batlar miqdorini hisoblash va to'lash) qabul qilishda ishtirok etadi;
- Jamiyat xodimi va/yoki uning yaqin qarindoshlari jamiyat kontragentlarining, hamkorlarining yoki raqobatchilarining ustav kapitalida (jamiyat xodimi va/yoki uning yaqin qarindoshlari "Toshkent" respublika fond bozorida yoki qandaydir boshqa fond bozorida ommaviy muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyati qimmatbaho qog'ozlarining 5 % kam bo'lgan qismiga egalik qilishi holatlaridan tashqari) ishtiroki bor;



- Jamiyat xodimi va/yoki uning yaqin qarindoshlari jamiyat kontragent-kompaniyalarida, hamkorlarida va raqobatchilarida (shu jumladan boshqaruv organlarida) qandaydir rahbarlik lavozimlarini egallagan;

- Jamiyat xodimi jamiyat faoliyati ustidan qandaydir nazorat funksiyalarini amalga oshiradigan davlat mansabdor shaxsining yaqin qarindoshi;

- Jamiyat xodimi va/yoki uning yaqin qarindoshlari jamiyat raqobatchilari, hamkorlari va/yoki kontragentlaridan qarz mablag'lari, kafolatlar (moliyaviy institutlar tomonidan barcha uchun bir xil (yoki korporativ) shartlarda beriladigan kafolat va kreditlardan tashqari va yaqin qarindoshlari ko'rsatilgan mablag'larni o'zlariga ish beruvchi bo'lgan jamiyat hamkorlari yoki kontragentlaridan korporativ shartlarda oladilar);

- Jamiyat xodimi va/yoki uning yaqin qarindoshlari jamiyat raqobatchilari, hamkorlari va/yoki kontragentlaridan moddiy yordam oladilar, ko'rsatilgan yordamning yaqin qarindoshlarning ish beruvchi bo'lgani holatda jamiyat hamkorlaridan yoki kontragentlaridan olinishi bundan mustasno;

- Jamiyat xodimi asosiy ishidan tashqari boshqa tashkilotlarda (shu jumladan zavodda yoki "O'zkimyo sanoat" AJ tizimida) ham ishlaydi;

- Jamiyat xodimi jamiyat kontragentlari, hamkorlari yoki raqobatchilari uchun (uning lavozim majburiyatlarida nazarda tutilganlardan tashqari) ishlar bajaradi va/yoki xizmatlar ko'rsatadi, shuningdek ularning agenti yoki boshqa vakili hisoblanadi va h.k.

- Jamiyat xodimi Jamiyat tomonidan tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni o'zining shaxsiy manfaati bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxslardan xarid qilish haqida qarorlar qabul qilishda ishtirok etadi.

Ko'rsatilgan manfaatlar to'qnashuvi holatlarining o'rnaklari jamiyat xodimlari tomonidan oshkorlashtirilishi kerak bo'lgan holatlarning to'liq ro'yxati emas.

8.3 Jamiyat xodimlarining ishdan bo'sh vaqtlarida ilmiy, ta'lim, ijodiy va boshqa faoliyat bilan shug'ullanishlari agar bunday faoliyat xodimning jamiyatdagi lavozim majburiyatlarini samarali bajarishiga zarar keltirmasa, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va jamiyatning qonuniy manfaatlariga zid bo'lmasa taqiqlanmagan.

8.4 Jamiyat avlodlarning o'rin almashishlari saqlanishiga alohida e'tibor qaratadi va mehnat sulolasi faoliyatining saqlanishini qo'llab quvvatlaydi. Xodimning jamiyatda yaqin qarindoshlari mavjudligi har doim ham real manfaatlar to'qnashuviga olib kelavermaydi, bu o'rinda bu holat haqida ushbu protsedurada belgilangan tartibda jamiyatni xarador etish lozim.

8.5 Real yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi xususida shubha yuzaga kelganda jamiyat xodimlari korrupsiyaga qarshi ma'sul bilan maslahatlashishlari lozim.

8.6 Manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni olish, o'rganish va saqlash, shuningdek manfaatlar to'qnashuvini boshqarish jarayoniga ishtirok etuvchi jamiyat xodimlari olingan ma'lumotlarni sir saqlash va ushbu ma'lumotga faqat tekshirish, qayd etish, manfaatlar to'qnashuvi holatlarini bartaraf qilish choralarini ko'rish, shuningdek o'zlarining lavozim majburiyatlari doirasida ushbu jarayon ustidan nazorat qilish uchun lozim bo'lgan shaxslarga kirish imkoniyatini ta'minlash majburiyatini oladilar.

9. MANFAATLAR TO'QNASHUVINING MAVJUDLIGI/MAVJUD EMASLIGI HAQIDAGI MA'LUMOTLARNI ISHGA QABUL QILISHDA OSHKORLASHTIRISH

9.1 Xodimlar bo'limi ma'sul xodimi har-bir nomzodga "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ ga ishga kiruvchi nomzodga to'ldirish uchun anketa taqdim qiladi.

9.2 Nomzod anketani olganidan so'ng 3 (uch) ish kuni ichida uni to'ldirishi, imzo chekishi va xodimlar bilan ishlash bo'limi ma'sul xodimiga qaytarishi lozim. Nomzodni o'rganish jarayonida keyinchalik haqiqiy nusxasini xodimlar bilan ishlash bo'limiga yuborish sharti bilan anketani elektron shaklda taqdim etish ruxsat etiladi.

9.3 Real yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lganda, xodimlar bilan ishlash bo'limi ma'sul xodimi tomonidan anketa tegishli nomzodning shaxsiy ishjildiga uni tegishli lavozimga tayinlanishi bilanoq umumlashtiriladi.

9.4 Real yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lganda, xodimlar bilan ishlash bo'limi ma'sul xodimi anketani nomzoddan qabul qilib olgandan so'ng 3 (uch) ish kuni



ichida uni ko'rib chiqish uchun axloq komissiyasi/manfaatlar to'qnashuvini hal etish komissiyasiga yuboradi.

9.5 Axloq komissiyasi/manfaatlar to'qnashuvini hal etish komissiyasi real yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni ushbu protseduraning 14-bo'limida nazarda tutilgan tartibda ko'rib chiqishi va manfaatlar to'qnashuvini baholash va hal etish Shakli (Ushbu Protseduraga 1-ilova) bilan nomzodga nisbatan qabul qilingan qaror haqida xodimlar bilan ishlash bo'limining ma'sul xodimini xabardor qilishi lozim.

9.6 Uziga nisbatan manfaatlar to'qnashuvi aniqlangan nomzodni jamiyatga ishga qabul qilishda manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlar "Dehqonobod kaliy zavodi" AJda manfaatlar to'qnashuvi xarakteridagi holatlarni qayd etish reyestriga kiritilishi, holat esa zaruratga ko'ra ushbu protsedurada ko'rsatilgan tartib va muddatlarda hal etilishi lozim.

9.7 Boshqaruv a'zolari uchun manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi/mavjud emasligini oshkorlashtirish "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ ijro organi rahbarlarining nomzodlarini tanlash reglamentida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

10. MANFAATLAR TO'QNASHUVI MAVJUDLIGI/MAVJUD EMASLIGI HAQIDAGI MA'LUMOTLARNI ROTATSIYA YOKI YANGI LAVOZIMGA TAYINLANISHDA OSHKORLASHTIRISH

10.1 Xodimni rotatsiya qilish yoki uni yangi lavozimga tayinlash haqida qaror qabul qilish jarayonida bunday xodimning har biri jamiyatning ishlab turgan xodimlari uchun manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi/mavjud emasligi haqidagi Shakl (Ushbu Protseduraga 2-ilova) ni to'ldirishi lozim.

O'ziga nisbatan rotatsiya qilish, yangi lavozimga tayinlash haqida qaror qabul qilinayotgan xodimga bunday shaklni xodimlar bilan ishlash bo'limi ma'sul xodimi jamiyatning ichki elektron pochta orqali yuboradi yoki shaxsan uchrashib taqdim qiladi.

10.2 Xodim shaklni olganidan so'ng 3 (uch) ish kunidan kechiktirmasdan uni to'ldirishi, imzo chekishi va xodimlar bilan ishlash bo'limi ma'sul xodimiga qaytarishi lozim.

10.3 Rotatsiya qilish yoki yangi lavozimga tayinlashda manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi haqida ma'lumot olinmagan holatda shakl xodimlar bilan ishlash bo'limi ma'sul xodimi tomonidan tegishli xodimning shaxsiy ishjidiga qo'shib qo'yiladi.

10.4 Rotatsiya qilish yoki yangi lavozimga tayinlashda manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi haqida ma'lumot olingan holatda xodimlar bilan ishlash bo'limi ma'sul xodimi shaklni xodimdan qabul qilib olganidan so'ng 3 (uch) ish kuni ichida axloq komissiyasi/manfaatlar to'qnashuvini hal etish komissiyasiga ko'rib chiqish uchun yuboradi.

10.5 Axloq komissiyasi/manfaatlar to'qnashuvini hal etish komissiyasi real yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni ushbu protseduraning 14-bo'limida nazarda tutilgan tartibda ko'rib chiqishi va manfaatlar to'qnashuvini baholash va hal etish Shakli (ushbu protseduraga 2-ilova) yordamida xodimlar bilan ishlash bo'limi ma'sul xodimini qabul qilingan qaror haqida xabardor etishi lozim.

10.6 Quyidagi holatlarda xodimni rotatsiya qilish yoki yangi lavozimga o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi:

- ushbu protsedurada nazarda tutilgan holatlarda axloq komissiyasi/manfaatlar to'qnashuvini hal etish komissiyasi tomonidan qaror qabul qilinishi va uni jamiyat boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlanishiga qadar;

- manfaatlar to'qnashuvini baholash va hal etishning tegishli Shaklida ko'rsatilgan real manfaatlar to'qnashuvi holatining axloq komissiyasi/manfaatlar to'qnashuvini hal etish komissiyasi tomonidan tasdiqlangan usullardan biri bilan hal etilishiga qadar.



11. MANFAATLAR TO‘QNASHUVI MAVJUDLIGI/MAVJUD EMASLIGI HAQIDAGI MA’LUMOTLARNI HAR YILI DEKLARASIYALASH

11.1 Jamiyatda alohida lavozimlar uchun manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi haqidagi ma’lumotlarni har yili deklarasiyalash nazarda tutilgan.

Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi haqidagi ma’lumotlarni har yili deklarasiyalashi lozim bo‘lgan xodimlarning lavozimlari ro‘yxati ushbu protseduraning 3-ilovasida ko‘rsatilgan.

11.2 Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ma’sul har yili ko‘rsatilgan lavozimlarni dolzarbligi, tashkiliy funksional strukturaga va jamiyatning korrupsiyon tavakkallarini baholash/qayta baholash natijalariga mosligini qayta ko‘rib chiqadi. Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi haqidagi ma’lumotlarni har yili deklarasiyalashi lozim bo‘lgan xodimlarning lavozimlari ruyxatiga o‘zgartirishlar kiritish korrupsiyaga qarshi kurashishga ma’sulning tavsiyasiga asosan jamiyat boshqaruv raisining buyrug‘i asosida amalga oshiriladi.

11.3 Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi haqidagi ma’lumotlarni har yili deklarasiyalash jamiyatning amaldagi xodimlari uchun manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi haqidagi Shaklni (ushbu protseduraga 2-ilova) to‘ldirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

11.4 Jamiyatning ishlab turgan ishchi xodimlari uchun manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi haqidagi Shaklni yig‘ishni tashkillashtirishga ma’sul kadrlar bo‘limi hisoblanadi.

11.5 Kadrlar bo‘limi har yili 10 yanvar kuniga qadar manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi haqidagi ma’lumotlarni har yili deklarasiyalashi lozim bo‘lgan xodimlarning lavozimlari ro‘yxatiga asosan, bunday shakllarni to‘ldirishi lozim bo‘lgan ishlab turgan xodimlar ro‘yxatini shakllantiradi (Ushbu protseduraning 4-ilovasi).

Ko‘rsatilgan ishchi xodimlar ro‘yxati 15 yanvardan kechikmagan holatda korrupsiyaga qarshi kurashishga ma’sul bilan kelishilishi lozim.

11.6 Kadrlar bo‘limi ma’sul xodimi kelishilgan ro‘yxatga asosan 20 yanvarga qadar ishlab turgan xodimlar uchun manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi haqidagi Shaklni (Ushbu protseduraga 2-ilova) ichki elektron pochta orqali tarqatadi yoki shaxsan to‘ldirish uchun taklif qiladi. Shaklni tarqatishda albatta to‘ldirilishi lozim bo‘lgan muddat ko‘rsatiladi. Ushbu muddat 5 fevraldan kechikmasligi kerak.

11.7 Ishlab turgan xodimlar uchun manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi haqidagi Shaklni (Ushbu protseduraga 2-ilova) kadrlar bo‘limidan olgan xodimlar xabarnomada ko‘rsatilgan muddatlarda uni to‘ldirishlari, imzolashlari va qaytarishlari lozim.

11.8 Har yili 15 fevral kuniga qadar kadrlar bo‘limi qabul qilib olingan shakllarni dastlabki tahlilini amalga oshiradi:

- shaklning to‘liq va to‘g‘ri to‘ldirilganligi, shuningdek unda real yoki potensial manfaatlar to‘qnashuvi haqida ma’lumotlar mavjud bo‘lmagan holatda kadrlar bo‘limi ma’sul xodimi uni tegishli xodimning shaxsiy ishjildiga umumlashtiradi;

- shakl to‘liq va to‘g‘ri to‘ldirilmagan va rasmiylashtirilmagan holatda kadrlar bo‘limi ma’sul xodimi tegishli xodimdan ma’lumotlarga aniqlik kiritadi (zarurat bo‘lganda yangi shaklni imzolash bilan);

- kadrlar bo‘limi ma’sul xodimi real yoki potensial manfaatlar to‘qnashuvi haqida ma’lumotlar ko‘rsatilgan barcha shakllarni korrupsiyaga qarshi kurashishga ma’sulga yuboradi.

11.9 Korrupsiyaga qarshi kurashishga ma’sul shaxs 1 mart kuniga qadar kelib tushgan shakllarni jumladan manfaatlar to‘qnashuvi haqida ma’lumotlarning “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ da manfaatlar to‘qnashuvi sifatida tavsiflanadigan holatlarni qayd etish reyestrda o‘zgarganligi nuqtai nazaridan tahlil qilinishini ta’minlaydi.

Bordiyu, muqaddam qayd etilmagan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari mavjud bo‘lsa, korrupsiyaga qarshi kurashishga ma’sul 1 mart kuniga qadar “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ da manfaatlar to‘qnashuvi sifatida tavsiflanadigan holatlarni qayd etish reyestriga kiritilishini ta’minlaydi, shuningdek ushbu protseduraning 14 – bo‘limida ko‘rsatilgan tartibda ko‘rib chiqish uchun axloq komissiyasi yoki manfaatlar to‘qnashuvini hal etish komissiyasiga havola etadi.



11.10 Korrupsiyaga qarshi kurashishga ma'sul 1 may kuniga qadar real yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi haqida ma'lumotlar ko'rsatilgan barcha shakllarni kadrlar bo'limiga qaytaradi.

Kadrlar bo'limi ma'sul xodimi tomonidan ishlab turgan xodimlar uchun manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi haqidagi Shakl bilan birgalikda tegishli xodimning shaxsiy ishjildiga umumlashtiriladi.

12. MANFAATLAR TO'QNASHUVI MAVJUDLIGI HAQIDAGI MA'LUMOTLARNI MANFAATLAR TO'QNASHUVI HOLATLARINING YUZAGA KELISHI JARAYONIDA ANIQLASH

12.1 Jamiyatning biror xodimida real yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganda u qisqa vaqtda, ammo bir ish kundan ko'p bo'lmagan vaqt ichida, ishlab turgan xodimlar uchun manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi haqidagi Shaklni (Ushbu protseduraga 2-ilova) o'zining bevosita rahbariga yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga ma'sulga elektron pochta orqali yuborishi yoki shaxsan to'ldirib, imzo chekkan holda taqdim etishi lozim.

12.2 Shaklni qabul qilib olgan xodimlar ushbu protseduraning 14-bo'limida ko'rsatilgan tartibda ko'rib chiqish va hal etish uchun bir ish kundan ko'p bo'lmagan vaqt ichida uni axloq komissiyasi yoki manfaatlar to'qnashuvini hal etish komissiyasiga (14 bo'limga qara) yuboradilar.

13. JAMIYATDA YO'LGA QO'YILGAN A'LOQA KANALLARI ORQALI MANFAATLAR TO'QNASHUVI MAVJUDLIGI HAQIDAGI MA'LUMOTLARDAN XABARDOR ETISH

13.1 Jamiyat xodimlarida boshqa xodimlarga nisbatan real yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi haqida asosli taxminlar yoki ma'lumotlar paydo bo'lganda, bunday ma'lumotni jamiyatda yo'lga qo'yilgan quyidagi a'loqa kanallaridan biri (Ushbu protseduraning 8.2. bo'limiga qara) orqali taqdim qilishlari lozim:

- murojaat_dkz@uz-potash.uz elektron pochta orqali;
- pochta orqali: 180405, Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumani
- bevosita rahbarga (faqat Jamiyat xodimlariga tegishli);
- nazorat bo'limi: +998 75 612 50 18;
- to'g'ridan-to'g'ri Komplayens xizmatiga (anticorruption@uz-potash.uz elektron pochta yoki +998 75 612 50 44

- jamiyat axloq komissiyasi raisiga.

13.2 Kompaniyada o'rnatilgan "Ishonch telefoni" va boshqa aloqa kanallarida manfaatlar haqiqiy yoki potensial to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida xabarlar kelib tushganda, olingan ma'lumotlar "Ishonch telefoni" faoliyatini tashkil etish protseduraiga muvofiq qayta ishlanadi va "Dehqonobod kaliy zavodi" AJda va jamiyatning boshqa ichki meyoriy hujjatlarida belgilangan va axloq komissiyasi/manfaatlar to'qnashuvini hal qilish komissiyasiga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi.

13.3 Jamiyat, shu jumladan "Ishonch telefoni" va Kompaniyada o'rnatilgan boshqa aloqa kanallarida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkinligi to'g'risidagi xabarlarini qabul qilish, qayta ishlash va ko'rib chiqish uchun mas'ul bo'lgan xodimlar o'z vakolatlari va mavjud imkoniyatlari doirasida ishonchli axborot yoki asosli taxminlarni taqdim etgan shaxs haqidagi ma'lumotlarning maxfiylikini ta'minlaydi. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno)

13.4 Kompaniya xodimlarning manfaatlarini himoya qiladi va kompaniyaning boshqa xodimlariga nisbatan haqiqiy yoki potensial ziddiyat mavjudligi to'g'risida vijdonan ma'lumot yoki asosli taxminlar haqida «Ishonch telefoni» yoki boshqa axborot kanallari orqali xabar bergan xodimlarga nisbatan ta'qib qilish, shu jumladan ishdan bo'shatish, lavozimini pasaytirish, kamsitish, tazyiq qilish harakatlariga yo'l qo'ymasligini kafolatlaydi.

13.5 Bila turib yolg'on ma'lumot tarqatish, yolg'on guvohlik berish yoki tuhmat qilish ushbu protseduraning buzilishi va axloqsiz xatti-harakatlar namunasi hisoblanadi va bunday xabarni taqdim



etgan xodim O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va kompaniyaning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin.

14. MANFAATLAR TO'QNASHUVI HOLATLARINI KO'RIB CHIQISHGA MA'SUL SHAXSLAR

14.1 Manfaatlarni to'qnashuvini ko'rib chiqish va hal qilish bo'yicha qaror qabul qilish uchun ma'sul shaxslar:

- axloq komissiyasi - Jamiyat boshqaruvi a'zolari uchun;
- Manfaatlarni to'qnashuvini hal qilish komissiyasi, uning qarori keyinchalik hay'at raisi tomonidan tasdiqlanadi - Boshqaruv a'zolari bundan mustasno, har yili manfaatlarni to'qnashuvi mavjudligi/yo'qligi to'g'risida deklaratsiya qilinishi shart bo'lgan lavozimlarni egallagan xodimlar uchun;
- Manfaatlarni to'qnashuvini hal qilish komissiyasi - Jamiyatning qolgan xodimlari uchun.

14.2 Manfaatlarni to'qnashuvini hal etish bo'yicha komissiyaning doimiy a'zolari:

- komplayens xizmati xodimi;
- xodimlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i
- yuridik bo'lim boshlig'i.

korrupsiyaga qarshi ma'sul manfaatlarni to'qnashuvini hal etish komissiyasi raisi hisoblanadi.

14.3 Axloq komissiyasining tarkibi "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ xodimlarining axloq bo'yicha komissiyasi haqidagi Nizom bilan belgilanadi

14.4 Manfaatlarni to'qnashuvi holatlarini ko'rib chiqish tartibi va muddatlari bo'yicha ushbu protseduraning qoidalari axloq komissiyasi va manfaatlarni to'qnashuvini hal etish komissiyasiga tadbiiq qilinadi.

14.5 Har bir manfaatlarni to'qnashuvi holatini ko'rib chiqishda manfaatlarni to'qnashuvi holati ko'rib chiqilayotgan xodimning bevosita rahbari axloq komissiyasi/manfaatlarni to'qnashuvi komissiyasiga taklif qilinadi. Axloqiy komissiya raisi / manfaatlarni to'qnashuvi komissiyasi, agar zarurat bo'lsa, boshqa shaxslarni ham taklif qilishi mumkin.

14.6 Axloqiy komissiya/manfaatlarni to'qnashuvi bo'yicha komissiya a'zosi, agar manfaatlarni to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqish unga nisbatan amalga oshirilsa, manfaatlarni to'qnashuvi holatini ko'rib chiqishda qatnasha olmaydi, shuningdek, agar u ushbu vaziyatni ko'rib chiqish natijalaridan bevosita yoki bilvosita manfaatdor, shu jumladan quyidagi sabablarga ko'ra:

- manfaatlarni to'qnashuvi holati ko'rib chiqilayotgan xodimning bo'ysunuvchisi bo'lsa;
- manfaatlarni to'qnashuvi holati ko'rib chiqilayotgan xodimning qarindoshi bo'lsa;
- manfaatlarni to'qnashuvi holatini ko'rib chiqish natijasida uning bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaatdor bo'lgan boshqa asosli holatlarda.

Shu bilan birga, bunday xodim manfaatlarni to'qnashuvi holatini ko'rib chiqishda ishtirok etishdan ozod qilish to'g'risida yozma ariza bilan etika komissiyasi / manfaatlarni to'qnashuvi komissiyasi raisiga murojaat qilishi shart.

15. MANFAATLAR TO'QNASHUVI HOLATLARINI KO'RIB CHIQISH MUDDATLARI

15.1 Manfaatlarni to'qnashuvini hal qilish bo'yicha komissiya / axloqiy komissiya tomonidan qaror qabul qilish muddati tegishli ma'lumot olingan kundan boshlab 5 (besh) ish kunidan oshmasligi kerak.

Zarurat tug'ilganda va axloqiy komissiya/manfaatlarni to'qnashuvi bo'yicha komissiya raisining yozma roziligi bo'lgan taqdirda, ko'rsatilgan muddatlar haqiqiy manfaatlarni to'qnashuvi vaziyati to'g'risida dastlabki ma'lumot olingan kundan boshlab 10 (o'n) ish kunigacha uzaytirilishi mumkin.

15.2 Manfaatlarni to'qnashuvini hal qilish to'g'risida qaror qabul qilishdan oldin, unga nisbatan manfaatlarni to'qnashuvini hal qilish masalasi ko'rib chiqilayotgan xodimga nisbatan quyidagi choralardan biri qo'llanilishi kerak:

- Manfaatlarni to'qnashuvi hal qilinishi kerak bo'lgan xodimni manfaatlarni to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki unga aloqador bo'lgan masalalarni muhokama qilish va qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etishdan chetlashtirish;

